XALQ DEPUTATLARI QIBRAY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 11 - yanvar VI-47-1-10-139-K/23 Qibray tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Qibray tumanidagi mavjud geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 12-oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlari sohasida ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga, Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasining 2022 yil 10-noyabrdagi 1/12-4-6897-sonli va 2022 yil 16-noyabrdagi 1/12-4-7008 xamda 1/12-4-7009-sonli bayonlariga asosan O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasining 2022 yil 10-noyabrdagi 1/12-4-6897-sonli va 2022 yil 16-noyabrdagi 1/12-4-7008 xamda 1/12-4-7009-sonli bayonlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qibray tuman Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasiga tumandagi qabristonlar nomlarini Kadastr agentligining Toponomika xizmati tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tganligi to‘g‘risida 1- ilovaga asosan Davlat reestriga kiritish topshirilsin.

3. Qibray tumanidagi qayta nom beriladigan ko‘cha xamda qabristonlar

ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qibray tumani hokimligi axborot xizmati rahbari (T.Toshxojaev), “Qibray sadosi” gazetasi bosh muharriri (G.Axmedova)larga ushbu qarorni hokimlik veb-sayti va gazeta sahifasida chop etish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiyasi (G.To‘xtanazarova) hamda Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari (N.Usmonova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Mirkasimov**

Xalq deputatlari Qibray tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-47-1-10-139-K/23-son qaroriga
1-ilova

Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining Qibray tumani 31 ta geografik obektining (qabristonlarning) qonun xujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan

RO‘YXATI

№	Qabriston	Joylashgan m.f.y.	Qabristonlar nomi	Qabristonlar nomi
1	Qabriston	Mexnat m.f.y.	“Mexnat” qabristoni	Taxminan 1930-1932 yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
2	Qabriston	Yonariq m.f.y.	“Yonarik” qabristoni	Taxminan 1930-1932 yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
3	Qabriston	Xo‘jaqo‘rg‘on m.f.y.	“Xo‘jakurgon” qabristoni	Taxminan XI-asrlarda qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
4	Qabriston	May m.f.y.	“May” qabristoni	Taxminan 1958-1960-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan
5	Qabriston	Ilg‘or m.f.y.	“Birlik” qabristoni	Taxminan 1952-1954-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
6	Qabriston	May m.f.y.	“May xristyan rus” qabristoni	Taxminan 1908-yilda tashkil topgan. Maxallani nomida
7	Qabriston	May m.f.y.	“Bag‘ish” qabristoni	Taxminan 1920-1922-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Bag‘ish urug‘i nomiga qo‘yilgan.
8	Qabriston	Shalola m.f.y.	“Uchoxti” qabristoni	Taxminan 1958-1960-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida

9	Qabriston	May m.f.y.	“Kizilobod” qabristoni	Taxminan 1938-1940-yillar oralig‘ida tashkil topgan. Ushbu qabriston tashkil topishidan oldin Xo‘jaqo‘rg‘on xududida joylashgan yopilgan “Qiziqo‘rg‘on” qabristoniga dafn etib borilgan. “Qiziqo‘rg‘on” qabristoni to‘lganidan so‘ng, “Qizilobod” qishlog‘i axolisiga o‘zining yeridan qabristonga joy ajratilgan va “Qizilobod” deb nom berilgan.
10	Qabriston	May m.f.y.	“Qo‘ziboqar avliyo ota” qabristoni	Taxminan 1945-1950-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Qabriston joylashgan yer “Qo‘ziboqar avliyo ota” deyilgan. Shu sababli qabriston nomi xam “Qo‘ziboqar avliyo ota” deb nomlangan.
11	Qabriston	Jomiy m.f.y.	“Do‘stlik” qabristoni	Taxminan 1980-1984-yillar oralig‘idada qabriston tashkil topgan. Avval maxalla nomi “Do‘stlik” nomi yuritilganligi sababli, qabriston nomi xam “Do‘stlik” deb nomlangan
12	Qabriston	Sharq m.f.y.	“Shark” qabristoni	Taxminan 1928-1930-yillar oralig‘ida tashkil topgan. Maxallani nomida
13	Qabriston	Turkiston	“Turkiston” qabristoni	Taxminan 1994-yilda tashkil topgan. Maxallani nomida
14	Qabriston	Turkiston	“Turkiston xristyan rus” qabristoni	Taxminan 1993-yilda tashkil topgan. Maxallani nomida
15	Qabriston	Nurafshon m.f.y	“Nurafshon” qabristoni	Taxminan 1994-yilda qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
16	Qabriston	Do‘rmon m.f.y.	“Do‘rmon” qabristoni	Taxminan 1910-1915- yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Do‘rmon ota ismli inson birinchi dafn etilgan. Shuning uchun “Do‘rmon” deb nomlangan.

17	Qabriston	Qipchoq m.f.y.	“Uch kayrogoch” qabristoni	Taxminan 1728-1730-yillar oralig‘ida faqat 1 ta inson dafn etilgan. Qo‘yilgan toshda ism familiyasi o‘chib ketgan. Ushbu yerlarda qayrag‘ochlar ko‘p bo‘lganligi sababli, “Qayrag‘och” nomi bilan atalgan
18	Qabriston	Zebunisso m.f.y.	“ Yolg‘iz yog‘och ota” qabristoni	Taxminan XIII-asrlarda qabriston tashkil topgan. Qabristonda faqat bitta yog‘och bo‘lgan. Shu yog‘och tagiga ismi noma’lum avliyo ota qo‘yilgan
19	Qabriston	Iftixor m.f.y.	“Qibray xristyan rus” kabristoni	Taxminan 1940-1945-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Qibray tumani xududida joylashgani va rus millatiga mansub insonlar dafn etilganligi uchun “Qibray xristiyan rus” deb nomlangan.
20	Qabriston	Marifat m.f.y.	“Dovul tepa” qabristoni	Taxminan X-asrlarda qabriston tashkil topgan. Qabristonda tepalik bo‘lgan. Shu tepalikda dovul bo‘lganligi sababli “Dovul tepa” deb nomlangan
21	Qabriston	Boyjigit m.f.y.	“Boyjigit” qabristoni	Taxminan 1950-1952-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Qozoq millatiga mansub bo‘lgan boy yigit ko‘chib kelgan. Shu yigit nomiga “Boyjigit” deb nomlangan
22	Qabriston	Tinchlik m.f.y.	“GES Kodiriya xristyan rus” qabristoni	Taxminan 1945-1950-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Ushbu qabriston GES Кадырya xududiga yaqin bo‘lganligi sababli, qabriston shu nom bilan atalgan.
23	Qabriston	Chinobod m.f.y.	“Chinobod” qabristoni	Taxminan 1880-yilda qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
24	Qabriston	Bo‘ston m.f.y.	“Bo‘ston” qabristoni	Taxminan 1930-1931-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida
25	Qabriston	O‘tkir m.f.y.	“O‘tkir” qabristoni	Taxminan 1956-1958-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida.

26	Qabriston	Navbaxor m.f.y.	“Ko‘ktuluv buva №2” qabristoni	Ko‘ktuluv buva1-qabristonida dafn etish uchun yer maydoni kam qolganligi sababli, (asosan xilxonalarda joy qolgan) Qorasuv daryosini pastki qismidan 1.20ga yangi yer ajratilgan va 1983-yildan dafn etib kelinmoqda
27	Qabriston	Uymovut m.f.y.	“Uymavut” qabristoni	Qabriston tashkil topgan yili noma’lum. Maxallani nomida.
28	Qabriston	Istiqbol m.f.y.	“Lolazor” qabristoni	Taxminan 1930-1932- yillar oralig‘ida tashkil topgan. Qabristoni o‘rnida lolalar ochilib, lolazor bo‘lgan. Shuning uchun “Lolazor” deb nomlangan.
29	Qabriston	Darxon m.f.y.	“Darxon ota” qabristoni	Taxminan 1950-1954-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. Maxallani nomida.
30	Qabriston	Oqoltin m.f.y.	“Jambul ota” qabristoni	Taxminan 1950-1952-yillar oralig‘ida qabriston tashkil topgan. U vaqtda maxalla nomi “Varoshilev” bo‘lgan. 1992-1993-yillarda maxalla nomi “Oq oltin” deb nomlangan. Qabristonni nomini qariyalar “Jambul ota” qo‘yilishini taklif qilishgan va ushbu nom bilan atalgan.
31	Qabriston	Yangi Arg‘in m.f.y.	“Argin 1” qabristoni	Taxminan 1918-yilda qabriston tashkil topgan. Arg‘in urug‘i nomiga qo‘yilgan.

Xalq deputatlari Qibray tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-47-1-10-139-K/23-son qaroriga
2-ilova

Qibray tumanidagi qayta nom beriladigan ko‘cha xamda qabristonlar

RO‘YXATI

№	Geografik ob’ektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif va Ekspert komissiyasining xulosasiga muvofiq berilgan nomlar
1.	Ko‘cha	Oybek m.f.y	Gulima’mur	Yuksalish
2.	Qabriston	Nurafshon m.f.y.	Nurafshon	Yuqori Do‘rmon